



MILLIY UYG‘ONISH DAVRI QO‘QON ADABIY MUHITIDA ANDIJON QO‘ZG‘OLONI (DUKCHI ESHON QO‘ZG‘OLONI)GA BAG‘ISHLAB YOZILGAN SHE‘RIY TURKUMLAR TAHLILI

Sayfiddinova Gulnoza Ulug‘bek qizi,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207061>

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy uyg‘onish davri Qo‘qon adabiy muhitida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida ijod qilgan shoirlarning Andijonda sodir bo‘lgan “Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni”ga bag‘ishlab yozgan turkum she‘rlari tahlilga tortilgan.

Key words: National awakening, literary atmosphere, series of poems, genre, ghazal, murabba, mukhammas, musaddas, fard, tuyuq, rubai, poetry.

Tarixdan bizga ma‘lumki, xalqimiz mustamlaka davrida milliy ozodlik uchun, kelajakka bo‘lgan porloq ishonch bilan zulm va zo‘ravonlikka qarshi turli shakllarda kurash olib bordilar. Bu kurashlar goho qo‘zg‘olon, gohida esa xalq g‘alayonlarida o‘zining ifodasini topdi. Ulardan xalq orasida keskin muhokamalarga sabab bo‘lgan 1898-yilda Andijonda sodir bo‘lgan Dukchi eshon rahbarligidagi “Andijon qo‘zg‘oloni”dir. Zero, bularning barchasi ozodlik uchun harakatlarning debochasi edi. Albatta bu jarayonlar davr ijodkorlarini ham befarq qoldirmadi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitining yozuvchilari bu qo‘zg‘olonga o‘z munosabatlarini bildirdilar. Shu tariqa Muqimiyning “Hajvi xalifai Mingtepa”, Zavqiyning “Hajvi Dukchi eshon”(Ayrim manbalarda “Hajvi Yigchi eshon”) satiralari, Adabiyotshunos T. Hojiboyevning “XIX asr o‘zbek shoiri Muhammad Umar Umidiy hayoti va ijodi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida shoir Umidiyning ham shu nomdagi hajviyoti mavjud ekanligini va u “Yigchi eshon hajvi” deb nomlanganligini ta‘kidlaydi.[1.95]. Filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinovning 2009- yili Tokioda “1898-yil Andijon qo‘zg‘oloni va uning yo‘lbboshchisi Dukchi Eshon – davr shoirlari bahosida”nomli kitobi ingliz tilida nashr etiladi. Adabiyotshunosning tadqiqotlari natijasida ayni mavzudagi turkum she‘rlar ilm ahliga ma‘lum qilinadi.[2.59]. Unga ko‘ra bu davrda Muqimiy, Zavqiy, Umidiydan tashqari yana Rojij Marg‘inoniyning “Yikchi eshon haqida hajv”, Sidqiy Xondayliqiy, Sulton Ahmad, Abd al-G‘afur Muhibb, Mavlaviy Yo‘ldoshlarning ham shu mavzudagi she‘rlari, Asiri Xo‘jandiyning “Dar mazammati eshon Dukchi” nomli asarlari haqida ma‘lumot beriladi. Bu qimmatli ma‘lumotlar asosida Dukchi eshonga(Muhammad Ali) bag‘ishlangan she‘riy turkumlarni tahlil qilishga zamin



yaratildi. Ma'lumki bu davrga kelib turli mualliflarning ayni bir mavzuga atab yozilgan asarlari she'riyatni yana bir pog'onaga yuksaltirdi. Natijada she'riy turkumlar yuzaga keldi. "She'riy turkum –bu yaxit bir tizim, uning mazmuni va turkumni tashkil etuvchi asarlarning o'zaro bog'liqligi turkumlilikni hosil qiladi. Turkumni tashkil etuvchi unsurlar estetik, ifodaviy, va tuzilmaviy vazifalarni ham bajaradi"[3.19]. Darhaqiqat adabiyotshunos olim to'g'ri izohlaganidek, she'riy turkumlardagi she'rlarni mazmun va mantiqan birlashtirib turuvchi yagona g'oya mavjud bo'ladi. Va barcha mazmun-mohiyat shu g'oya atrofida birlashadi. Muqimiyning Dukchi eshon haqidagi hajviyoti shunday boshlanadi:

Maxzani holi –dahan, til –mori go'yo bachchag'ar,
Zahri qotil suhbatini monandi dunyo bachchag'ar [4.35].

Zavqiy ham Muqimiy izidan borib she'rni shunday boshlaydi:

Solding olam ahlig'a ko'p sho'rishu g'ovg'o eshon,
Hayriyat tezroq yedi boshingni bu savdo eshon [5.32].

Har ikkala asarning mazmuni bir-biriga juda yaqindek ko'rinadi. Ikkisida ham qo'zg'olon boshchisiga bo'lgan munosabat aks ettiriladi. U tufayli xonavayron bo'lgan joylarning sanog'i yo'qligi aytiladi. Lekin bu ikki hajviya bir-biridan farq qiladi. Chunki, Zavqiy eshon mavzusiga boshqacharoq yondashadi. Buni esa quyidagicha izohlash mumkin. Aslida bu she'rlar o'sha davrdagi hukmron qarashlarga ergashib yozilgani adabiyot ahliga sir emas, albatta. Xususan, professor Hamidulla Boltaboyevning "Yollangan adabiyot sirlari" maqolasi orqali ma'lum bo'ladiki, Muqimiyning Dukchi eshonni fosh etuvchi maxsus asar yozmagani ilmiy dalillar bilan asoslab beriladi. "Muqimiyning pokiza nomi "Dukchi eshon sikli"ning boshlovchisi va yaratuvchisi sifatida tilga olinishi tarix haqiqatiga ham, adabiy mantiqqa ham zidligini shoir satirik merosining o'zi anglatib turibdiki, u dastlab tanqid qalamini mamlakatga bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatini olib kirgan chor amaldorlari va harbiylarga qarshi qaratgan" [6.3]. Bundan tashqari ushbu maqola orqali anglashiladiki, bu mavzudagi she'rlar hukumatning maxsus topshirig'i asosida yozilgan bo'lib, bunday ishdan Zavqiy ham mustasno bo'lmaganligini faktlar orqali ilmiy xulosalaydi. Uning "Hajvi Yigchi eshon", "Uy puli" va "Pashshalar" singari satirik asarlari ham ana shu topshiriqlar silsilasida maydonga kelganligi haqida ma'lumotlar keltiradi. Va bu orqali bunday vazifalarga Muqimiyning aloqasi bo'lmaganligini isbotlab beradi. E'tibor qaratadigan bo'lsak Muqimiy ta'rifidagi Dukchi eshon obraziga tashqi tomondan yondashiladi. Ta'rif ham shunga yarasha beriladiki, ya'ni:



Surmalar tortib qachon ko‘rsang ko‘ziga doimo,

O‘zga bergay, qo‘lida oyina, oro bachchag‘ar [7.378-379].

Bundan tashqari *“Is chiqargan yerda hozir”*, *“Qancha so‘ksang shuncha shilqim”*, *“Borsa har yerda urib behuda yolg‘on lofu qof”* degan ta‘riflar ham yuqoridagi fikrimizni dalillaydi. Bu berilgan ta‘riflar Muqimiyning bu temaga yuzaki baho berganligidan dalolat beradi. Zavqiy satirasining dastlabki baytlarida eshonga tashqi tomondan baho beriladi, lekin misralar davomida esa uning qo‘zg‘oloni natijasida butun Farg‘ona vayrona holga kelgani, xalq qattiq jabr ko‘rganligi bayon etiladi:

Ishni sen qilding, balog‘a qoldilar bechora xalq,

G‘o‘zani sen yeb, kesildi bo‘zchi, bangi, yo eshon [8.32-33].

Bu davr adabiyotining yana bir muhim jihati shundaki, unda yaratilgan asarlarning xalq tiliga uyg‘unligi, sodda va ravon yozilganligidadir. Yuqoridagi she‘rlarda buning yaqqol misolini ko‘rishimiz mumkin. Muqimiy hajviyotidan farqli o‘laroq Zavqiy hajviyotida voqea butun tafsilotlari bilan aks etadi. Bu qo‘zg‘olon tez fursatda yoyilib ketganidan ahli Farg‘onaning tang ahvolda qolganini yozadi shoir. Bu shuhrat go‘yo vabo singari barchani domiga tortdi, deyiladi she‘rda. Shoir xarobaga aylangan, vayrona bo‘lgan Mingtepa haqida qattiq qayg‘urganini ifodalaydi. Agar bu turkum she‘rlar tahliliga diqqat qiladigan bo‘lsak, faqat Zavqiy tomonidan yozilgan hajviyotdagina Eshonning Qodirquli mingboshi tomonidan tutilib, dorga osilganligi haqida ma‘lumot beriladi. Bu esa professor H. Boltaboyevning Dukchi Eshonni qoralash aslida chor hukumatining maxsus topshirig‘i bilan Zavqiy tomonidan yozilgan, degan ma‘lumotlarining yana bir isbotidir.

Qancha odam o‘ldilar, ko‘p xalq bo‘ldilar asir,

Shar‘ hukmi: qonig‘a zomin bo‘libsan ho eshon.

Tutmasa Qodirquli mingboshi, gar osilmasang,

Aylar eding bu mahalda Mahdilik da‘vo eshon [8.32-33].

Yigirma bayt(qirq misra)dan iborat bo‘lgan Zavqiy hajviyotida eshonning fe‘l atvori haqida *“Fe‘l-u atvoring tamoman yoqmagan, bejo eshon... Xiylakor dog‘ulidek surat buzuq, siyrat buzuq”* deya ta‘rif beradi. Zavqiy o‘ziga xos tarzda fikrlaydigan, boshqa yozuvchilardan farqli o‘laroq tanqidiy qarash va qat‘iylik singdirilgan asarlari bilan ham ajralib turgan. Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash joizki, adabiy ta‘sir omili tufayli Muqimiy ijodidagi keskin kinoya, achchiq kesatq va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy mavzularga yondashuv Zavqiy ijodida ham asosiy planda bo‘lgan. Davr



adabiyotining yana bir muhim jihatlaridan yana biri shundaki, an’anaviylikdan chekinmagan holda shoirlar tomonidan yangi badiiy topilmalar qilinganligidadir. Yangilanayotgan adabiyotimizda shu tariqa yangicha tasvirlar, o‘xshatish va poetik ifodalalar vujudga keldi. Rojij Marg‘inoniyning ham shu mavzudagi “Yikchi eshon haqida hajv” she’ri haqida professor Aftondil Erkinovning olib borgan ilmiy tadqiqotlari orqali ma’lumotga ega bo‘ldik. Bu she’r o‘n yetti baytdan iborat bo‘lib, shoir Zavqiy va Muqimiy singari Rojij ham eshon haqidagi o‘z fikrlarini she’riy yo‘l bilan bayon etgan. Farqli tomoni shundaki, Rojij qalamiga mansub bo‘lgan hajviyada asosiy e’tibor qo‘zg‘olon tafsilotlariga qaratilgan. Chunki satrlardagi o‘xshatishlar, bayonlar buni yaqqol isbotlab beradi. Qo‘zg‘olon qay tariqa va qanday sodir bo‘lganligi va uning natijasida xalqqa qanchalik talofat yetganligi kuchli bo‘yoqlarda ifodalangan: *Yurdi joyidin chiqib, oq lattani qo‘lga ilib, Nayzasin yigdin qilib, fath etgali mulki jahon...Ko‘rdi ko‘zini ochib, lashkarlari ketmish qochib, Boshg‘a tufrog‘lar sochib, hayrat bilan qildi fig‘on [2.82].*

Shoir Rojij bu qo‘zg‘olonga fitna deya baho beradi, qolaversa eshon haqidagi keskin fikrlarga qaraganda qozg‘olonning sodir bo‘lishidan tortib, to falokatga yuz tutishigacha bo‘lgan jarayonga ko‘proq e’tibor qaratadi. Ayni shu jihati bilan Muqimiy va Zavqiy hajviyotidan farqli xususiyati anglashiladi. Chunki, yuqoridagi hajviyotlarda asosan eshonning holati va uning kirdikorlari fosh etiladi. Rojij hajviyotida jang tafsilotlari shunday jonli tasvirlanadiki, bu qo‘zg‘olon haqidagi tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi. Zavqiy va Rojij hajviyotlarida ma’no jihatidan o‘xshash bo‘lgan misralarni ham uchratamiz: Zavqiyda *“Xoriqi odat: o‘tinsiz osh pishirding tomda”* deya eshonning xom rejasiga ishora qilinib, uning holati ifodalansa, Rojij bu mazmunni yanada boyitadi va shunday izohlaydi: *“Qo‘ydi o‘t yer ostidan qaynatdi tom uzra qozon”* yoki *“Hiylasidin bexabar birmuncha hayvonlar oni, Tomda pishgan oshini bildi karomatdin nishon”*. Zavqiy eshonning ishi rejasiz bo‘lganligiga ishora qilsa, Rojij ham tomda qilingan rejaga ishora qiladi. Muqimiy hajviyotning so‘nggida: *“Ey Muqimiy, sendin ozore biravga yetmasin, Dushmaning ham bo‘lsa hargiz dema also bachchag‘ar”*, misralarini keltirib, bu bilan qo‘zg‘olonga holisona yondashganini ko‘rsatadi. Zavqiyda esa, *“Har kishi bu sho‘rishi Farg‘onadin so‘rsa nishon, Zavqiy aytur: jon chiqib, tarixidir ig‘vo eshon”*. Ko‘rinadiki, Muqimiydan farqli Zavqiy eshonni she’r so‘nggida ham tanqid ostiga oladi. Rojij hajviyani *“el aro rasvo bo‘lib, dor ostida berdi jon”* deya yakunlaydi.

Asli Marg‘ilonlik, ijodiy faoliyati XIX asrning ikkinchi yarmida Farg‘onadan boshlangan “Maktubchai xon”(1884) asarining muallifi Muhammad Umar



Umidiyning ikki qismdan iborat bo‘lgan shu mavzuda yozilgan “Yigchi eshon hajvi” she’ri ham mavjud bo‘lib, bu she’rning birinchi qismi yigirma baytdan iborat [1.95]. Dukchi eshonning makr-xiylalar bilan odam to‘plab, qo‘zg‘olon qilishga erishganligi hamda uning shuhrati har yonga yoyilganligi ifodalanadi she’rda: *Misvogidan o‘t chiqarmish –bachchag‘arning shuhrati, Katta ish bilan qilursan, muttaham da‘vo eshon* [1.95].

“Eshon” radifli g‘azal shaklida yozilgan hajviyaning ikkinchi qismida satirik tanqid orttiriladi. Eshon makrda iblis bilan hamtovoqlikda ayblanadi. Birinchi qismda ham xuddi shunga o‘xshagan misra mavjud edi: *Makri shayton birla tadbir ko‘rsatib paydo eshon...* Ikkinchi qismda esa mazmun yanada bo‘rttirib ifodalanadi, 2-qism 1-qismning davomi sifatida uni to‘ldiradi: *Yoki iblis hamtovoq makrida bu shayton eshon...* Birinchi qismda eshonga unvon bergan Muhammadxon qozi, u bilan hamsuhbat bo‘lib, qo‘llab-quvvatlagan Sarmsoq xo‘ja eshonning nomlari keltiriladi. Ularga sovg‘a-salomlar yuborgan eshon qattiq qoralanadi. Ikkinchi qismda qancha odamning bu qo‘zg‘olon oqibatida xonavayron bo‘lib qamalgani, bormol-mulklari qo‘ldan ketgani, oxir-oqibat eshonning yakson bo‘lgani misralar orqali ifodalanadi. Ahamiyatli jihati shundaki, shoir Umidiyning fikrlari xuddi Zavqiynikidek tanqidga asoslanadi. Bu esa o‘sha davr ijodkorlarining har bir hodisaga kuzatuvchanlik va ziyraklik bilan yondashganini bildiradi.

Toshxodja Asiri Xo‘jandiyning ham “Dar mazammati eshon dukchi” nomli o‘n sakkiz baytdan iborat bo‘lgan she’ri mavjud. Bu she’rlarning barchasi o‘sha davr muhitidagi vaziyatni aks ettiribgina qolmay, jamiyat hayotida ro‘y berayotgan har qanday hodisaga ijodkorlarning individual yondashganligidan dalolat beradi. Xususan, Dukchi eshon haqidagi hajviyotlar satirik yo‘nalishda bo‘lib, achchiq kulgini aks ettiradi. Shu tariqa Dukchi eshonga bag‘ishlangan turkum she’rlar yuzaga keldi. “Turkumlar tarkibidagi she’rlar mustaqil asarlar ekanligi ulardagi har bir she’r uchun tanlangan mavzuda, qo‘yilgan sarlavhasida, she’rning o‘z poetik obrazlari bo‘lishida, mustaqil mazmunida, kechinma tasviri yoki alohida syujet chizig‘iga ega bo‘lishi kabilarda ko‘rinadi”[3.19]. Darhaqiqat, turkum she’rlarning asosiy xususiyatlaridan biri ham, aynan ularning bir mazmun atrofida birlashtirilganidadir. Yaxlit mazmunga ega bo‘lgan, yagona lirik qahramon ishtirok etgan turkum she’rlar yaratish ayni davrda a‘nanaga muvofiq yangilanishlarga to‘la bir shaklda davom ettirildi. Adabiyotshunos olim O. Fayzullayeva olib borgan tadqiqotida ta’kidlaganidek, turkumlilik ham o‘z taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan badiiy

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



shakllardan biridir, unda ham asrlar osha davom etib kelayotgan an'ana kuzatiladi. Turkum she'rlardagi yakdillik ayni fikrimizning dalilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiboyev T. “XIX asr o'zbek shoiri Muhammad Umar Umidiy” hayoti vaijodi”. F.f.nom.diss. –T.,1974. -B.95.
2. Aftandil S.Erkinov “The Andijan uprising of 1898 and its leader Dukchi-Ishandescribed by contemporary poets”. Printed in Japan. P.59
3. Fayzullayeva O. “O'zbek dabiyotida she'riy turkumlilik masalasi” f.f.d.diss.(DSc) avtoreferati. –T: 2023. -B.19.
4. Muqimiy. Tanlangan asarlar. 2-jild. –T.1960. -B.35.
5. Zavqiy. Tanlangan asarlar. –T.1950. -B.32.
6. Boltaboyev H. Yollangan adabiyot sirlari. O'zAS.1998.4-dekabr,49-son. -B.3.
7. Karimov G'. Muqimiy. Asarlar. –Toshkent.,1974. -B.378-379.
8. Zavqiy. Tanlangan asarlar. –T. O'zadabiynashr,1960.- B.32-33.